

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

## INVESTITSIYA JALB ETISH BO‘YICHA XORIJ TAJRIBALARI VA UNDAN O‘ZBEKISTON SHAROITIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Hojiqulov Feruza Dona qizi**

Termiz davlat universiteti [hojiqulova@tersu.uz](mailto:hojiqulova@tersu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada investitsiyalarni xorij tajribasi orqali zamonaviy iqtisodiy o‘sishga ta’siri, investitsiyalarning amaldagi mexanizmi va investitsiyalarning bozor iqtisodiyotiga ta’siri ko‘rsatilgan. Xorij tajribalari orqali investitsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda, uning mehnat bozori bilan o‘zaro ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** investitsiya, investitsiya siyosati, investitsiyalarni jalg qilish, erkin iqtisodiy zonalar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ko‘p yillar davomida investitsion faoliyat bo‘yicha tajribalarni yig‘ib borgan. Iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalg qilishning faol siyosati olib borildi. Ularni boshqarishning taktika va strategiyalarini o‘zgartirib ko‘rdi. Ma’lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ish boshlagan ilk kunlardan davlatda investitsion muhitni yaxshilash, ichki va eng avvalo tashqi sarmoyadolarga sharoit yaratish, ularga eshiklarni ochish masalasiga e’tibor qaratdi. Investor bilan ishlashni davlat idoralarining birinchi vazifasiga aylantirdi. Biroq, vaziyatni birdaniga o‘zgartirib yuborish oson ish emas. Ustiga ustak ko‘p yillar O‘zbekiston investorlarning ishonchini oqlamay kelgan. Vatanimiz taqdiri uchun strategik ahamiyatga ega masala – hududlarga investitsiyalarni jalg qilish masalalariga qaratmoqchimiz. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, investitsiya – bu iqtisodiyotning yuragi. Bunda sarmoya bilan birga tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik rivojlanadi, ish o‘rinlari yaratiladi, eksport ortadi.

Jahoning rivojlangan davlatlaridan farqli ravishda, rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlar tajribasi shunisi bilan qiziqish uyg‘otadiki, ular avvalda rivojlanish darajasi bo‘yicha O‘zbekistonga yaqin bo‘lgan holda investitsiya siyosatini amalga oshirish oqibatida katta natijalarga erishdilar.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Mamlakatlarda olib borilayotgan investitsiya siyosati deyarli bir-biridan farq qilmaydi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg etishning maqbul mexanizimini o'rghanishda qisqa davr mobaynida iqtisodiy rivojlanishda ulkan natijalarga erishgan rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar tajribasi e'tiborga sazovor.

Ko'plab xorijiy mamlakatlar mintaqaviy siyosatining muhim xususiyati shundan iboratki, ularda yirik ma'muriy-hududiy birliklar bo'lib shtatlar, provintsiyalar emas, balki shaharlar va munitsipalitetlar hududiy muvofiqlashtirish maqonlari hisoblanadi. Bularga, misol qilib quydagilarni keltirish mumkin: Frantsiyada kam rivojlangan Janubi G'arb mintaqasining 9 ta aglomeratsiyasi va 17 ta shahar, Ispaniyada 10 ta "rivojlanish markazlari" va 2 ta "sanoatni rag'batlantirish markazlari", Yaponiyada 10 ta "sanoatni rivojlantirishning alohida tumanlari" va 6 ta "yangi sanoat shaharlari", Italiyada 12 ta "sanoatni rivojlantirish areallari" va 26 ta "industrializatsiya yadrolari", Germaniyada 300 ta "muhim aholi punktlari" va boshqalar. Niderlandiya va Belgiyaning bu sohadagi tajribasi juda diqqatga sazovor. Shuni ta'kidlash joizki, mintaqalardagi shaharlar va qishloqlar rivojlanishini rejalashtirish bo'yicha birinchi marta 1915 yilda Belgiyada qonun qabul qilingan.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida mintaqaviy investitsiya siyosati har bir hududning ichki imkoniyatlari va shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda turlicha qo'llanilishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar orasida Yaponianing bu sohadagi tajribasi alohida afzallikkarga ega. Aniq maqsadga yo'naltirilgan uzoq muddatli mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida Yaponiya tarixan qisqa davr ichida dunyodagi eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shildi. Yaponianing mintaqaviy investitsiya siyosati yer va tabiiy resurslar cheklanganligini, kishilar faoliyatini tabiiy sharoitlarga moslashtirish zaruriyatini, mamlakatning turli hududlari aholisi turmush darajasidagi farqlarni kamaytirish talablarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, ko'plab davlatlarda mintaqaviy investitsiya siyosatini amalga oshirish har bir hudud ichki imkoniyatlari va shartsharoitlaridan kelib chiqqan holda turlicha qo'llanilishi mumkin.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

Hindiston investitsiya siyosatining samaradorligi haqida global raqobatbardoshlikning 4,1 ga teng bo‘lgan yuqori indeksi (Misr, Xorvatiya va Chexiya darajasi), va shuningdek, so‘nggi yillarda tayyor mahsulotlarning 3/4 qismini tashkil etuvchi eksport tarkibi yaxshilanishidan dalolat beradi. Iqtisodiy va investitsiyaviy faoliylikning qator ko‘rsatkichlari bo‘yicha Hindiston dunyoning rivojlanayotgan davlatlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini investitsiyalashda quyidagilar ustuvor deb belgilanadi: sanoatning xom-ashyo ishlab chiqarmaydigan tarmoqlari; nobank moliya xizmatlari; oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish; infratuzilma-avtomagistrallar, bandargohlar, elektroenergetika ob’ektlari, ommaviy tezyurar transport tizimlarini qurish; fuqarolar aviatsiyasi, tibbiyot va farmatsevtika; mehmonxona biznesi va turizm; elektron jihozlar va dasturiy ta’milot; neftni qayta ishlash xususiy korxonalari; mineral xom ashyni qidirish va qazib olish; maslahat xizmatlari va boshqalar.

Tailandda qulay investitsiya muhitini yaratish uchun iqtisodiyotni erkinlashtirish (bank sektori va tashqi savdo tartibiga e’tibor qaratish), makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, investitsiya ustuvorliklari, xususiy lashtirish sohasida shaffoflikni ta’minlash, imtiyozlar va preferentsiyalar berish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu mamlakatda so‘nggi yillarda ko‘rilgan choralar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohalarini kengaytirish, investitsiyaviy tartiblarni, soliq undirish faktlari va usullarini, turli rag‘batlar va preferentsiyalarni taqdim etish jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi. Bu bilan bir vaqtida xorijiy investorlar mulkini himoya qilishni kafolatlovchi, olinadigan foydani repatriatsiya qilish, mamlakatning ijobjiy imidjini yaratuvchi qonuniy me’yorlarni takomillashtirish bo‘yicha ishlar (ko‘rgazmalar tashkil qilish, investorlar va jurnalistlarni taklif qilish, investorlar uchun maxsus nashrlar), milliy kengashning investitsiyalar bo‘yicha xorijiy ofislari ochilishi, milliy ustuvorlik ommaviy muhokama etilishi va e’lon qilinishi kabi ishlar amalga oshirildi. Natijada hozirgi vaqtida Tailand ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan iqtisodiyotni erkinlashtirish darajasi bo‘yicha ilgarilab ketdi.

Turli mamlakatlar (AQSh, Xitoy, Hindiston, Tailand) investitsiya siyosatidagi farqlar va o‘ziga xos xususiyatlarga qaramay, bu davlatlarning investitsiya strategiyasi va mexanizmlarida umumiy tomonlar mavjud. Bular quyidagilardir:

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2**

1. Samarali investitsiya siyosatini tashkil qilishda (ayniqsa uning shakllanishi bosqichlarida) davlatning roli yuqoridir. Bunda davlatning funktsiyalari faqat qulay investitsiya muhitini shakllantirish, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish, infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, zarur me'yoriy-huquqiy bazani yaratish va unga rioya qilish monitoringini amalga oshirish bilan cheklanmaydi. Bu yo'nalishda inson va ijtimoiy kapitalni rivojlantirish, davlat institutlari institutsional salohiyatini mustahkamlash, iqtisodiyotning yangi innovatsion sektorlarini rivojlantirishga investitsiyalarni ko'paytirish kabi masalalarni hal qilish muhim bo'lib hisoblanadi.

2. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag'batlantiruvchi qulay va mustahkam investitsiya muhiti. Bu holat jamg'armalar darajasi YaIMga nisbatan 20 foizdan kam bo'lmasligini, va shuningdek, investitsiyalar o'sish sur'atlari YaIM o'sish sur'atlaridan yuqori (2-4 punkt) bo'lishini ta'minlaydi.

3. Bank sektori va moliya bozori barqaror rivojlanishi. Jahonning ko'pgina raqobatbardosh rivojlanayotgan mamlakatlarida monetizatsiya darajasi 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Faqat shunday holdagina aholi va tadbirkorlarning bo'sh mablag'larini ishga solish, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, faol infliyatsiyaga qarshi siyosatni olib borish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

4. Investitsiya siyosatining tizimliligi va bir butunligi. Ma'lumki, investitsiya siyosati mamlakat iqtisodiy rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi va umummilliy manfaatlarga asoslanadi. Jumladan, Xitoy investitsiya siyosati sikllarga qarshi tartibga solish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, erishilgan yuqori o'sish sur'atlari saqlab turishning (Xitoy iqtisodiyotining siklik rivojlanishi xususiyatini hisobga olgan holda) faol vositasi bo'lib hisoblanadi.

5. Investitsiya siyosatiga mas'ul bo'lgan davlat institutlari faoliyati sifatini oshirish. Bu mustaqil ekspertlarni (taniqli olimlar va obro'li tadbirkorlar) davlat resurslarini taqsimlovchi boshqaruv kengashlari va tuzilmalar tarkibiga jalg qilish orqali amalga oshiriladi. Mazkur resurslar u yoki bu investitsiya loyihibalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sifatida xususiy investitsion-innovatsion fondlar boshlang'ich kapitalini shakllantirish uchun taqdim etilgan. Bu davlatlarda investitsiya imtiyozlari va preferentsiyalarini berish ishlarining shaffofligi muhim rol o'ynaydi.

6. Yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga kapital oqimlarini yo'naltirish. Bunda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlangan mamlakatlar bilan ular o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish sur'atlaridagi farqni tezroq bartaraf etish imkonini beruvchi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

rivojlanishning “quvib yetish” strategiyalaridan foydalanganlar. Bunda xususiy-davlat hamkorligi, davlat va biznes o‘rtasidagi riskni taqsimlash, marketing tadqiqotlariga ketadigan xarajatlarni davlat tomonidan birlashtirib moliyalashtirish, xodimlarni o‘qitish, yangi mahsulotni sertifikatlashga ko‘maklashish asosiy mexanizm bo‘lib hisoblanadi.

7. Inson va ijtimoiy kapitalni oshirishni investitsiyalashga ustuvorlik berish. Fan sig‘imkorligiga ega bo‘lgan iqtisodiyotni tezkorlik bilan yaratish sharoitida raqobatbardoshlik o‘sishini ta’minlash zaruriyati rivojlanayotgan mamlakatlarning inson va ijtimoiy kapitalga keng miqyosdagi investitsiyalarni jalg qilish ko‘rinishidagi o‘ziga xos ustuvorligini keltirib chiqaradi. Ta’lim sohasiga e’tibor, rivojlangan mamlakatlarga “aqllarning oqib o‘tishi”ni kamaytirish bo‘yicha ko‘rilgan jiddiy choralar rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sish istiqbollarini baholashning eng muhim mezoniga aylandi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalg qilishda nafaqat investitsion rag‘batlar, balki sarmoyalarni olg‘a yurgazish (investment promoting) strategiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan 50 ta mamlakat tajribalariga asoslangan tadqiqotlar dalolat berishicha, sarmoyalarni olg‘a yurgazishga sarflangan har bir dollar milliy iqtisodiyotga to‘rt dollarlik samara berishi mumkin. Muayyan potentsial investorga mo‘ljallab ishlab chiqilgan va faol marketing strategiyasiga ega bo‘lgan investitsiyalar eng samarali hisoblanadi.

AQSh - iqtisodiyoti juda rivojlangan va qonunchilik tizimi baquvvat mamlakat hisoblanadi. AQSh investitsion iqlimi yetarli darajada yorqin va jozibalidir. Hozirgi kunda bu mamlakat chet el investitsiyalarini jalg qilish hajmi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallab turibdi. Ya’ni dunyo miqyosida taxminan 20 % ni tashkil etadi. Bunday ajoyib natijalarga erishishda AQSh hukumati iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil sifatida chet el investitsiyalarini mamlakatning alohida shtatlariga kerakli vakolatlarni ajratib bergen. Ya’ni unga ko‘ra mamlakatdagi hududiy boshqaruv organlariga investitsiyalar oqimini oshirishda rag‘batlantirish uchun umumiy mamlakat bosh boshqaruv organiga nisbatan kam bo‘limgan vakolatlar beriladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

Amerika hukumati shuni yaxshi tushunib turibdiki, ya’ni chet el kapitalining AQSh iqtisodiyotiga kiritilishi faqatgina sanoat, savdo va inflatsion jarayonga emas, balki butun mamlakat milliy xavfsizligiga ham yetarlicha ta’sir ko’rsatadi. Natijada:

- shtatlar va mahalliy boshqaruv organlariga “o’z” hududining iqtisodiy rivojlanishi uchun mustaqillik taqdim etilgan bo‘lib, xususiy biznes hamda xizmat va tovarlar eksporti qo’llab-quvvatlanishi kerak;

- chet el tadbirkorlik kapitalini jalb qilish va mos ravishda chet ellik investorni ham nazorat qilish;

- xususiy xo‘jalik o‘sishini rag‘batlantirish;

- fiskal siyosatda motivatsiyalovchi aksiyalarini olib borishi lozim.

Oxirgi natija shuni ko’rsatadiki, ya’ni ushbu omillar hozirda mamlakat shtatlaridagi o‘zaro raqobatni keltirib chiqarib, mamlakatdagi investitsiyalar to‘g‘risidagi qonun rivojlanishiga o‘ziga xos impuls vazifasini bajarib berdi. Shu asnoda AQSh iqtisodiyotida investitsiyalarini jalb qilish va ularni boshqarishda quyidagi qator muhim o‘ziga xos xususiyatlarni ajratib o‘tishimiz mumkin:

- hududiy va mamlakatning olib borgan siyosati natijasida iqtisodiyotga investitsiyalarning yuqori oqimi ta’milanmoqda;

- kapital eksporti va importini rag‘batlantirish teng darajadaligi, buning natijasida mamlakat “netto-importer” maqomiga ega bo‘lgan;

- chet el investitsiyalarining yuqori darajada nazorat qilishni suiste’mol qilish(korrupsiya, qonunchilik meyorlari va moliyaviy-kredit kelishuvlari buzilishi)ga yo‘l qo‘yilmasligi;

Shuni ta’kidlash kerakki, AQShda investitsiyalarini boshqarishda iqtisodiy erkinlik tamoyillariga asoslanadi va iqtisodiy jarayonga jiddiy aralashmaydi, chunki bu yo‘l qo‘yib bo‘lmas chegarani keltirib chiqaradi. Bunday maqsad esa AQShdagi tashqi iqtisodiy faoliyat institutlari asosiy ishi bo‘lib, mamlakat va uning hududlaridagi maksimal eksport potensialini kengaytirish, xalqaro iqtisodiy faoliyatda iloji boricha ko‘proq qatnashchilarni jalb qilish uchun hukumat tomonidan ishlar olib borilmoqda.

AQSh iqtisodiyoti 2030 yilda eng yirik bo‘lib saqlanib qoladi, lekin uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2018 yilda 23.8% dan 2019 yilda 24.5% ga oshgan. Ushbu makroiqtisodiy ma’lumotlar yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha 2030 yilgacha dunyo iqtisodiyotidagi 20 ta eng yirik mamlakatni, AQSh qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan hisoblab chiqilib tashkil etilgan.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

Prognоз ко‘rsatkichlariga asosan AQSh liderlikni saqlab qoladi va mamlakat yalpi ichki mahsuloti 2030 yilga kelib 24,8 trln.dollarni tashkil qiladi. Ikkinci o‘rinni Xitoy egallaydi, uning yalpi ichki mahsuloti hajmi 22,2 trln. dollardan iborat bo‘ladi. Kuchli uchlikka esa Hidiston 6,6 trln. dollar yalpi ichki mahsulot bilan kiradi. Xalqaro Valyuta Fondi shuni qayd etadiki so‘nggi 15 yilda Hindiston jahonda ishlab chiqarish kuchi bo‘yicha eng baquvvat mamlakatga aylanadi. Investitsiyalarni jalg qilish va ularni boshqarishda yana bir dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri bu Xitoy hisoblanadi. Ularning investitsiyalarni boshqarishda olib borayotgan siyosati taxsinga sazovordir. Chunki Xitoy hozirgi kunda investitsiyalarni jalg qilishda jahonda birinchi o‘ringa ko‘tarilib, bir necha asrdan beri o‘z o‘rnini hech kimga bermay kelayotgan AQShni keyingi o‘ringa tushirib qo‘ydi. 1978 yildan boshlab Xitoyda iqtisodiy islohotlar o‘tkazila boshlangan.

Jahon ilg‘or tajribasiga asosan, erkin iqtisodiy zonalar rivojlangan davlatlarda tashkil etilishi jumladan, Xitoy erkin iqtisodiy zonalari va ularning rivojlanish bosqichlariga to‘xtalsak.

Fan texnika taraqqiyoti ta’sirida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi chuqurlashib borishi XX asr so‘nggi choragida jahon xo‘jalik tizimi rivojlanishida globallahuv va xalqaro integratsiya jarayonlari jadallahuviga olib keldi.

Buning natijasida Xitoy iqtisodiyotning jahon bozoriga bog‘liqligi kuchaydi va tashqi iqtisodiy faoliyat iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning eng asosiy shartlaridan biriga aylandi.

XXI asr boshlarida, erkin iqtisodiy zonalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi sifatida jahon xo‘jaligida muhim o‘rin tutdi. Erkin iqtisodiy zonalarning jahon xo‘jalik tizimida tutgan o‘rni, eng avvalo, shu bilan belgilanadiki, ular xalqaro tovar almashinuvini faollashtirish, investitsiyalarni safarbar etish, iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish evaziga jadal iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Erkin iqtisodiy zonalar vujudga kelishi 1973 yilda imzolangan “Kioto konventsiyasi” bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu konventsiyaga muvofiq bunday zonalar tashqi savdoning maxsus shakli sifatida tan olindi.

Kioto (Yaponiya) shahrida 1973 yil 18 mayda qabul qilingan “Bojaxona jarayonlarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish bo‘yicha xalqaro konventsya” qarorlarida Erkin iqtisodiy zona deganda - mamlakatning shunday hududi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

tushuniladiki, bu yerga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiktsiyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortilishdan ozod etiladi deb ko'rsatilgan.

XX asrning 70-yillari oxirlaridan boshlab, Xitoy ochiq iqtisodiyot asoslarini yaratishga kirishdi, sotsialistik mamlakatlarga yo'naltirilgan bir tomonlama iqtisodiy aloqalarga barham berildi. Bu esa, mamlakat xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga tub o'zgarishlar kiritdi hamda iqtisodiy o'sish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Davlat o'z vaqtida eski an'analardan voz kechishga erishdi va qo'shma korxonalar barpo etish uchun, xorijiy investitsiyalarga ruxsat berdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ikki shaklda: Xitoy va xorijiy mamlakat kapitali asosida hamda yuz foizlik xorijiy investitsiyalar asosida tashkil etildi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni jadal rivojlantirishga qaratilgan muhim choratadbirlardan biri erkin iqtisodiy zonalarning turli ko'rinishlari: alohida iqtisodiy zonalar, ochiq (dengiz bo'yli shaharlari, ochiq port shaharlari va boshqalarni) tashkil etish bo'ldi.

Bu zonalarning tashkil etilishi mamlakat iqtisodiyotiga yirik miqdordagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinalarini barpo etish, ishlab chiqarishni yangi texnika va ilg'or texnologiya asosida modernizatsiyalash imkonini berdi. Bu tadbirlarning barchasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga, eng avvalo tashqi iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada rivojlanishiga olib keldi.

Erkin iqtisodiy zonalar hozirgi kunda ham muvaffaqiyat bilan rivojlanmoqda. Xitoyning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini erkin iqtisodiy zonalarsiz tasavvur etish qiyin.

Xitoy iqtisodiyoti rivojlanishining eng muhim xususiyatlaridan biri - turli ko'rinishdagi erkin iqtisodiy hududlar barpo etilishi hisoblanadi. Sababi, dunyoda aynan, Xitoyda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish orqali iqtisodiyotida keskin o'zgarishlar kiritildi.

Bugungi kunda, Xitoyda 6 ta erkin iqtisodiy zonalar faoliyat olib borib, ulardan 4 tasi mamlakatning Janubi-Sharqiy qirg'oqlarida joylashgandir:

Maxsus iqtisodiy zonalarning tashkil topishi, Xitoyda iqtisodiy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatib, 1980 yilda dunyo tovarlar eksporti hajmidagi ulushi atigi 0,70 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 17 foizni tashkil etdi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

Xitoy hukumati kuchli erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etar ekan erkin iqtisodiy zonalar rivojlanishining strategik yo‘nalishlarini belgilab berdi, ular oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo‘ydi va ularni amalga oshirdi. Bu maqsad va vazifalarning asosiyлари quyidagilardan iborat edi:

birinchidan, erkin iqtisodiy zonalar zamonaviy iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirish va Xitoy tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – “tashqi dunyo uchun ochish” tamoyilini hayotga tatbiq etishga yordam berdi;

ikkinchidan, erkin iqtisodiy zonalar siyosiy va iqtisodiy tomonidan, barcha mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning sezilarli darajada o‘sishiga kuchli turki bo‘ldi va “Xitoy sotsialistik bozor iqtisodiyoti - jahon iqtisodiyoti” zanjirida o‘ziga xos muhim xalqaga aylandi;

uchinchidan, xorijiy investorlar uchun ochiq hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar nafaqat yuqorida qayd etilgan hududlar, balki Markaziy, Shimoliy-G‘arbiy va Janubiy-G‘arbiy rayonlarga xorijiy investitsiyalarni, zamonaviy texnologiya va uskunalarni jalb etish bilan bog‘liq tashqi iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishini amalga oshirishda katta rol o‘ynadi;

to‘rtinchidan, erkin iqtisodiy zonalar rivojlangan mamlakatlar kabi fan va texnikaning eng yangi natijalaridan, yuqori va unumli mehnatdan, zamonaviy ishlab chiqarish munosabatlaridan, xo‘jalik yuritishning yangi shakllaridan foydalanadigan o‘ziga xos laboratoriya vazifasini bajardi;

beshinchidan, erkin iqtisodiy zonalar qulay geo-iqtisodiy joylashuvidan, boy tabiiy-iqtisodiy resurslaridan, shu hududda istiqomat qilayotgan aholining malakali mehnatidan samarali foydalanishi, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etishi sharoitida qisqa muddatlarda yuqori iqtisodiy rivojlanish sur’atlariga, ushbu hududda istiqomat qilayotgan aholining farovonligini muttasil oshirib borishga erishdi;

Hukumat erkin iqtisodiy zonalarning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay sharoitlarni barpo etishga yo‘naltirilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga bu sohada, eng avvalo, qonuniy va me’yoriy asoslarini tartibga solish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi. Xususan 200 dan ortiq qonun va me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Xitoy erkin iqtisodiy zonalariga 100 dan ortiq davlatlardan investitsiyalar jalb etildi.

Hozirgi kunda aynan erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish hosobiga Xitoy dunyoda YaIM bo‘yicha 1 o‘ringa ko‘tarildi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

Shu bilan birga Xitoya 1979-2018 yillarda jami 2 trln. dollarga yaqin xorijiy investitsiyalar jalb etilgan bo'lsa, shundan 75-80 foizi Xitoy erkin iqtisodiy zonalariga jalb etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'rganilgan tajribalardan respublikamizda erkin-iqtisodiy zonalarni tashkil etish va uni samarali faoliyat olib borishida foydalanish, ayniqsa, soliq va bojxona imtiyozlarini shakllantirish hamda infratuzilmani ta'minlashda Xitoy tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda, xorijiy investorlar uchun yaratilgan barcha shart-sharoitlar, qulayliklar va yangiliklar, har bir hudud iqtisodiy potentsiyali nomoyon bo'ladigan "investitsion pasport"lari, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan istiqbolli investitsiya loyihalari, davlatdagi investorlarning xaq-huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik, imtiyoz va preferensiylar va boshqa bir qator ma'lumotlar bilan ta'minlangan va investorlarni jalb etish hamda davlatlarning investitsiya jozibadorligi namoyon etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribani o'rganib chiqqan holda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish orqali investitsiyalar jalb qilishni yanada rag'batlantirish yuzasidan quyidagilar taklif qilinadi:

1. Xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda xususiy-davlat hamkorligini kengaytirish. Bunda, asosan monopol bo'lgan sohalar neft va gaz, ko'mir, elektr energiya, temir yo'l, havo yo'llari yo'nalishlarida xususiy-davlat hamkorligini yo'lga qo'yish orqali investitsiyalar jalb etish hajmi va sifatini oshirish natijasida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Misol tariqasida, Qozog'iston Respublikasidagi havo transportidan foydalanish bo'yicha xarajatlar O'zbekiston havo transportidagi xarajatidagiga nisbatan sezilarli darajada past.

Ushbu yo'nalishda quyidagi takliflarni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Evropa-Xitoy yo'nalishida yuk tashish bozoriga kirish orqali qo'shimcha daromad olish, joriy va investitsiyaviy xarajatlarni optimallashtirish;

- raqobatni kuchaytirish uchun fuqaro aviatsiyasi bozoriga yangi tashuvchilarni jalb qilish, "Uzbekistan Airways"ni nufuzli xorijiy kompaniya boshqaruviga berish;

- aeroportlarni modernizatsiya qilish, xalqaro aeroportlarini davlat xususiy sheriklikka berish.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

Shuningdek, Malayziya davlati xalqaro aeroportlarini davlat-xususiy sheriklikka berish bilan xizmat ko'rsatish sohasini ancha yaxshilagan. Misol uchun, bu davlatda "AirAsia", "AirAsia X", "Firefly", "Malindo Air", "Malaysia Airlines" kabi aviakompaniyalar bilan ishlar olib borish natijasida dunyo miqyosida nufuzli o'rinni egallagan. Ushbu aviakompaniyalar o'rtasida raqobat yuqoriligi natijasida mijozlarga katta imtiyozlar berilgan.

"AirAsia" aviakompaniyasi 2009-2012 yillar oralig'ida dunyodagi eng yaxshi kam xarajatli aviakompaniyalar orasida yetakchilik qilgan. Bu aviakompaniya qolgan aviakompaniyalarga qaraganda chipta narxlari hamyonbopligi hamda yuqori sifatli xizmat ko'rsatishi bilan ajralib turadi.

Chiptalarni hech bir qiyinchiliksiz "onlayn" tarzda xarid qilish va band qilish imkoniyatlari yaratilgan. Shu bilan birga ushbu tajribani qo'llagan holda yuk tashish bozoriga kirish orqali qo'shimcha daromad olish va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishiga sabab bo'ladi.

Xalqaro tajribani inobatga olib, xorijiy davlat fuqarolari birorbir davlatga sayohat qilishdan oldin ushbu davlatga yetkazuvchi aviakompaniyaning dunyo miqyosidagi o'mniga, chipta narxlariga, yaratilgan sharoitlariga katta e'tibor qaratadi.

Shularni inobatga olib, raqobatni kuchaytirish uchun "Uzbekistan Airways"ni nufuzli xorijiy kompaniya boshqaruviga berish maqsadga muvofiq.

2. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat va biznes o'rtasidagi risklarni taqsimlash tizimini yo'lga qo'yish. Bunda, davlat investitsiya loyihalari qiymati yoki ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar eksportbobligi yoki o'ta muhum ekanligini hisobga olgan holda investitsiya loyihalariga qilinadigan xarajatlarning ma'lum bir qismini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish yoki subsidiya ajratish orqali riskning bir qismini o'ziga oladi.

Misol uchun, loyiha qiymati 10 mln. dollardan yuqori bo'lgan holatda loyiha uchun zarur bo'lgan kommunikatsiya tizimlari 100 foiz davlat tomonidan moliyalashtirilgan holda barpo etiladi.

Shuningdek, mahsulotlarni eksport qilishda, xalqaro sertifikatlarni olish bo'yicha to'lovlar subsidiya shaklida maqsadli jamg'armalardan jamg'armalar hisobidan qoplanadi.

3. Xalqaro tajribaga asosan aniq bir sektorga yoki muayyan bir potentsial investorga mo'ljallab ishlab chiqilgan va faol marketing strategiyasiga ega bo'lgan

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2**

investitsiyalar eng samarali hisoblanadi. Misol uchun, xorijiy investor tomonidan ma'lum bir hududda pomidor mahsulotlarini qayta ishlash taklifi taqdim etildi. Bunda, davlat tomonidan ushbu loyiha uchun zarur bo'lgan pomidor mahsuloti yetishtirish hajmlari aniq hisoblangan holda korxona quvvati bo'yicha ish tashkil qilinishi zarur yoki xorijiy investorga istesno tariqasida yer maydonlari ajratish orqali dastlab pomidor mahsulotini yetishtirishni tashkil etish taklif qilinadi. Bunda, xorijiy investor tomonidan uzoq yillarga mo'ljallangan strategiya ishlab chiqilishi talab etiladi.

4. Xitoy tajribasiga ko'ra "Erkin iqtisodiy zona" va "Savdo zonalari" faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish. Misol tariqasida, "Termiz" erkin iqtisodiy zonasasi Afg'oniston bilan chegaradosh hududda tashkil etish. Bu bizga investorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Afg'oniston bozoriga to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish, transport xarajatlarini maksimal darajada pasaytirish imkoniyatini beradi. Ushbu "Erkin iqtisodiy zona" bilan tutash bo'lgan hududda "Savdo zonasasi"ni tashkil etish Afg'onistonlik ulgurji yirik xaridorlarni jalg etish imkoniyatini beradi. Bu bizga nafaqat Afg'oniston bozori balki Pokiston va Hindiston bozoriga kirib borish yo'llarini ochadi. "Savdo zonasasi" hududiga kirish va chiqish bo'yicha viza hujjatlarini rasmiylashtirish muddatlarini qisqartirish, to'lovlarini bekor qilish kabi imtiyozlar qo'llanilishi talab etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Hojiqulova F., Eshquvvatov O. UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA DAROMADLARIDAN MAHALLIY BUDJETLARGA AJRATMALAR HISOBI // "Science Shine" International scientific journal. – 2023. – T. 7. – №. 1.

2. qizi Hojiqulova F. D., Eshquvvatov O. A. MAMLAKAT IQTISODIYOTINI YUKSALTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 23. – C. 19-23.

3. Feruza X., Eshquvvatov O. A. SUNDIY INTELLEKTNING MEHNAT BOZORIGA TASIRI // XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2023. – T. 1. – №. 8. – C. 36-39.

4. Hojiqulova F. MAHALLIY BYUDJETLARDAROMADARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 13.

5. Hojiqulova F. MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARING RIVOJLANISHI BANKLARNING TRANSFORMATSION SALOHIYATIGA TA'SIRI

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

//Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 317-318.

6. Hojiquulova F. et al. IMPROVING THE TAX SYSTEM IN OUR COUNTRY TRAINING ISSUES //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 378-382.

7. Hojiquulova F. MAMLAKATIMIZDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTRISH MASALALARI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. C7. – С. 378-382.